

ONA TILI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING OG`ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH UCHUN INTERFAOL METODLAR

Nafasova Yulduz Shuxratovna

Samarqand Zarmed Universiteti Tillar kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib darsni sifatli va samarali tashkil qilish haqida so`z yuritilgan. Sababi ona tili fanida, nafaqat grammatikani o'rgatish, balki o'quvchilarning fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yo'naltirilgan. Bu esa, o'z navbatida, og'zaki va yozma nutqning shakllanishi uchun muhimdir. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda interfaol metodlar, ya'ni o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan usullar, katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar – bu o'quvchilarni faollikka undovchi, ularning o'zaro muloqotini va fikr almashishini rag'batlantiradigan ta'lim usullari hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarga dars jarayonida mustaqil fikrlash, o'z fikrini ifodalash, boshqalar bilan bahslashish va mulohazalarini bayon qilish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so'zlar: interfaol metod, SWOT tahlil, T chizmasi, klaster”, idrok xaritasi, sinkveyn, BBB metodi va Blits so'rov.

Abstract. This article discusses the qualitative and effective organization of the lesson using modern interactive methods in the lessons of the native language and literature. The reason is that in the subject of the native language, it is aimed not only at teaching grammar, but also at developing students' thinking and communication skills. This, in turn, is important for the formation of oral and written speech. Interactive methods, that is, methods that ensure the active participation of students, are of great importance in the development of students' oral and written speech. Interactive methods are educational methods that encourage students to be active, stimulate their communication and exchange of ideas. Such methods create the opportunity for students to think independently, express their opinions, argue with others and express their opinions during the lesson.

Key words: interactive method, SWOT analysis, T-chart, cluster, cognitive map, syncwine, BBB method and Blitz survey.



Аннотация. В статье рассматривается применение современных интерактивных методов на уроках родного языка и литературы для качественной и эффективной организации уроков. Причина в том, что предмет «родной язык» направлен не только на обучение грамматике, но и на развитие навыков мышления и общения учащихся. Это, в свою очередь, важно для формирования устной и письменной речи. Большое значение в развитии устной и письменной речи учащихся имеют интерактивные методы, то есть методы, обеспечивающие активное участие учащихся. Интерактивные методы — это методы обучения, которые побуждают учащихся к активности, взаимодействию и обмену идеями. Такие методы предоставляют учащимся возможность мыслить самостоятельно, выражать свое мнение, дискутировать с другими и представлять свои взгляды в ходе урока.

Ключевые слова: интерактивный метод, SWOT-анализ, Т-диаграмма, кластер, когнитивная карта, синквейн, метод BBB, блиц-опрос.

Kirish. Ona tili ta'limi, nafaqat grammatikani o'rgatish, balki o'quvchilarning fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yo'naltirilgan. Bu esa, o'z navbatida, og'zaki va yozma nutqning samarali shakllanishi uchun muhimdir. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda interfaol metodlar, ya'ni o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan usullar, katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda foydalaniladigan interfaol metodlar haqida so'z yuritiladi va ularga misollar keltiriladi.

Interfaol metodlar – bu o'quvchilarni faollikka undovchi, ularning o'zaro muloqotini va fikr almashishini rag'batlantiradigan ta'lim usullari hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarga dars jarayonida mustaqil fikrlash, o'z fikrini ifodalash, boshqalar bilan bahslashish va mulohazalarini bayon qilish imkoniyatini yaratadi. Bu metodlar nafaqat o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, balki ularning ijodiy fikrlashini ham oshiradi. Interfaol metodlar orasida guruhlarda ishlash, rol o'ynash, munozara va diskussiyalar, taqdimotlar qilish, yozma ishlar yaratish kabi usullar o'z o'rnini topgan. Har bir metodning o'ziga xos xususiyatlari bor bo'lib, ular o'quvchilarning nutqini turli yo'nalishlarda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslari, o'quvchilarning til va nutqni rivojlantirish, shuningdek, analitik fikrlash va muloqot qobiliyatlarini oshirishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun, pedagoglar turli xil metodlardan foydalanadilar. Interfaol metodlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarni faollashtiradi, o'z fikrlarini ifodalashga, tahlil qilishga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolada, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan ba'zi interfaol metodlar: “SWOT tahlil”, “T chizmasi”, “Klaster”, “Idrok xaritasi”, “Sinkveyn”, “BBB metodi” va “Blits so'rov” haqida so'z yuritiladi.

SWOT tahlil. SWOT tahlil – bu o'quvchilarga ma'lum bir mavzu yoki masala haqida chuqur tahlil o'tkazishga yordam beradigan metoddir. SWOT tahlili asosan to'rtta qismdan iborat: kuchli tomonlar (S - Strengths), zaif tomonlar (W - Weaknesses), imkoniyatlar (O - Opportunities) va tashqi xavf xatar (T - Threats). Bu metod o'quvchilarga analitik fikrlashni rivojlantiradi va turli qarorlar yoki masalalar yuzasidan to'g'ri va ravon fikrlar bildirishga yordam beradi.

Misol: Adabiyot darsida “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi va otasi Razzoq so'fi obrazini, “O'tkan kunlar” romanida O'zbekoyim obrazini, “Urushning so'nggi qurboni” hikoyasidagi bosh qahramon Shoikromning muammoli turmushini, “Mehrobdan chayon” romanidagi Solih mahdum personajini, “Shum bola” qissasidagi Qoravoy portretini SWOT tahlil orqali yoritish asar g'oyasini ochib berish mumkin. O'quvchilarga bu mavzu yuzasidan kuchli tomonlar (masalan, ta'limning rivojlanishi), zaif tomonlar (masalan, vaqtni behuda sarflash), imkoniyatlar (masalan, yangi bilimlarni o'rganish) va tahdidlar (masalan, noto'g'ri ma'lumotlarga duchor bo'lish) haqida fikr yuritish topshiriladi. SWOT tahlili o'quvchilarni faollashtiradi va ular turli fikrlarni tizimli ravishda muhokama qilishga undaydi.

T Chizmasi (T-Chart). T chizmasi – bu ikkita jihatni solishtirish uchun ishlatiladigan metoddir. O'quvchilarga bir mavzuga oid ikkita fikrni yoki qarorni taqqoslashda yordam beradi. T chizmasi ikki ustundan iborat bo'lib, bir tomonga bir jihat, ikkinchi tomonga esa qarama-qarshi jihat kiritiladi. Bu metod o'quvchilarga farqlarni va o'xshashliklarni aniqlashda yordam beradi. “T chizmasi” taqqoslash metodidir. Misol uchun ona tili darslaridagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, zid ma'noli so'zlar, ibora va so'zning sinonimligi, tasviriy ifoda va so'zlar ma'nodoshligi, unli va undosh tovushlar tavsifi, sifat so'z turkumidagi ijobiy va salbiy ma'no bo'yoqdorlikni taqqoslash va hokazo mavzularga keng qo'llasa bo'ladi.



Misol: "Sifat soʻz turkumi" mavzusida T chizmasini yaratish. Oʻquvchilar bir ustunga “Jilmaydi” soʻzini va ikkinchi ustunga esa “Tirjaydi” soʻzini yozadilar. Soʻngra sinonimlikni hosil qiladigan ushbu soʻzlarning maʼno jihatlarini tahlil qilib koʻrsatadilar. Bu metod oʻquvchilarga tahlil qilishni va fikrlarni oʻzaro solishtirishni oʻrganishga yordam beradi. T chizmasi oʻquvchilarning tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Klaster. Klaster – bu oʻquvchilarga bir mavzuga oid asosiy gʻoyalarni va tushunchalarni tizimli ravishda bogʻlash imkonini beruvchi metoddir. Klasterda oʻquvchilar markaziy mavzudan boshlab, unga tegishli fikrlarni, soʻzlarni va gʻoyalarni atrofga joylashtiradilar. Bu metod oʻquvchilarga mavzuni kengroq koʻrib chiqish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Misol: "Soʻzning maʼnodoshligi" mavzusida klaster yaratish. Mavzu markazga joylashtiriladi va uning atrofida soʻzning sinonimlari yoziladi. Oʻquvchilar bu orqali mavzuni koʻp jihatdan oʻrganishadi. Klaster oʻquvchilarning ijodiy yondashuvini oshiradi va mavzuni toʻliq tushunishga yordam beradi.

Idrok xaritasi (Mind Map). Idrok xaritasi – bu vizual metod boʻlib, oʻquvchilarga oʻrganilayotgan mavzu yoki masala haqidagi asosiy fikrlarni tasvirlash va ularni oʻzaro bogʻlash imkoniyatini beradi. Bu metod oʻquvchilarni mavzularni yaxshiroq tushunishga va ular haqida chuqurroq fikr yuritishga undaydi. Idrok xaritasi usuli orqali oʻquvchilar fikrlarini mantiqiy ravishda bogʻlab, mavzuni tizimli tarzda taqdim etadi.

Misol: "Dunyo tillari" mavzusida idrok xaritasi yaratish. Misol: mavzu markaziga "Dunyo tillari" soʻzi joylashtiriladi va uning atrofidagi dunyo tillari tarmoqlarga ajratiladi. Har bir tarmoq orqali oʻquvchilar til oilalari bilan tanishadilar. Idrok xaritasi oʻquvchilarni oʻylashga va mavzuni bir nechta nuqtai nazardan koʻrishga yordam beradi.

Sinkveyn (Cinquain). Sinkveyn – bu qisqa va ritmik sheʼriy shakl boʻlib, besh qatorda mavzu haqida qisqacha fikrlar ifodalanadi. Bu metod oʻquvchilarga qisqa va loʻnda tarzda fikrlarini ifodalashni oʻrgatadi. Sinkveyn oʻquvchilarga mavzuni qisqa, lekin toʻliq tarzda ifodalash imkoniyatini beradi.

Misol: Adabiyot mavzusida sinkveyn yozish. Oʻquvchilarga quyidagi shaklda beshta qatorda yozish topshiriladi:

1. Birinchi qatorda – mavzu nomi. Misol:
2. Ikkinchi qatorda – ikkita sifat.



3. Uchinchi qatorda – uchta fe'l.
4. To'rtinchi qatorda – mavzuga oid bir tasvir.
5. Beshinchi qatorda – mavzu bo'yicha yakuniy fikr.

Adabiyot

Didaktik, hayotiy

O`qiladi, o`rganiladi, yoritiladi

Adabiyot – nodir so`z san`ati

Adabiyot – atomdan kuchli. (A.Qahhor)

Sinkveyn o'quvchilarga qisqa va aniq ifodalashni o'rgatadi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

BBB Metodi (Brainstorming, Best-Bad, and Bottom Line). BBB metodi uch qismdan iborat:

I.Brainstorming (Daqiqalar o'tkazish): O'quvchilar mavzu bo'yicha o'z fikrlarini erkin va tezda bildiradilar.

II.Best-Bad: O'quvchilar o'z fikrlarini ikkita toifaga ajratadilar: yaxshi va yomon jihatlar.

III.Bottom Line: Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani chiqaradilar.

Misol: "Ijtimoiy tarmoqlar" mavzusida BBB metodini qo'llash. O'quvchilar avval ijtimoiy tarmoqlarni yaxshi va yomon jihatlari bo'yicha ajratadilar va oxirida mavzu bo'yicha umumiy xulosa chiqaradilar. BBB metodi o'quvchilarning fikrlarini tez va samarali ravishda yig'ish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

Blits So'rov. Blits so'rov – bu qisqa, tezkor savol-javob sessiyasidir. O'quvchilarga bir necha savollar beriladi va ular tezda javob berishlari kerak. Bu metod o'quvchilarning eslab qolish, fikrni tezda ifodalash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Misol: "O'zbek tilidagi" mavzusida blits so'rov o'tkazish. O'quvchilarga turli tarixiy voqealar haqida qisqa savollar beriladi va ular tezda javob berishlari kerak. Blits so'rov o'quvchilarning tezkor fikrlash va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Debat. Munozara va diskussiyalar. Munozara – bu fikrlarning qarama-qarshiligi asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi metoddir. Munozara orqali o'quvchilar o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, boshqa fikrlarni tushunishga harakat qilish va bahsda qatnashishni o'rganadilar. Adabiyot darslarida munozara mavzularini tanlashda o'quvchilarni qiziqtirgan, dolzarb masalalar tanlanadi.

Masalan, “Kecha va kunduz” romanidan Quyidagi savol o`rtaga tashlanishi mumkin: Adabiyot darsida “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi va otasi Razzoq so`fi obrazini, “O`tkan kunlar” romanida O`zbekoyim obrazini, “Urushning so`nggi” qurboni hikoyasidagi bosh qahramon Shoikromni, Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi vijdon azobi girdobida qolgan obraz Akbarali timsolini yoki “O`tkan kunlar” romanidagi O`zbekoyim kabi murakkab obrazlar tahlil qilinadi. “Razzoq so`fi qizi Zebining taqdirini fojia bilan tugashida aybdormi?” degan savolni o`rtaga tashlaydi. Shu kabi mavzularda munozara o`tkazish mumkin. Munozara jarayonida o`quvchilar nafaqat og`zaki nutqlarini rivojlantiradi, balki boshqalar fikriga hurmat ko`rsatishni, o`z fikrlarini aniq va asosli tarzda ifodalashni ham o`rganadilar.

Guruhli ishlar. Guruhli ishlar – o`quvchilarga birgalikda muammo yechish yoki mavzu bo`yicha fikr almashish imkoniyatini beradi. Bu metod o`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishda muhim rol o`ynaydi, chunki ular guruhda o`z fikrlarini aniq va ravon ifodalashga majbur bo`lishadi. Masalan, o`quvchilarga ona tilidan bir mavzu (masalan, "Adabiyot dunyosi") bo`yicha guruh bo`lib, qisqa hikoya tuzish vazifasi beriladi. Har bir guruh a`zosi o`z fikrini qo`shadi, fikrlar almashiladi va yakuniy matnni birgalikda yozib chiqadilar. Bu ish nafaqat og`zaki, balki yozma nutqni ham rivojlantiradi, chunki guruh yakuniy matnni yozib, uni to`g`ri va ravon tarzda tahrir etadi.

Rol o`ynash (Drama metodlari). Rol o`ynash metodlari o`quvchilarga muayyan vaziyatda turli xil rollarni bajarish imkoniyatini beradi. Bu metod orqali o`quvchilar o`z nutqlarini o`zgartirishga, yangi so`zlar va ifodalarga ega bo`lishga majbur bo`lishadi. Masalan, hikoya, qissa, romanlarni o`rgangan holda, o`quvchilar o`zaro suhbatda turli rollarni o`ynab, og`zaki nutqni shakllantiradilar. Bu metod o`quvchilarni muloqotga kiritib, nutqni nafaqat to`g`ri, balki jonli va ifodali qilishga undaydi.



Yozma ishlar. Yozma ishlar – o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodlardan biridir. O'quvchilarga turli janrlarda (hikoya, insholar, esse) yozish vazifalari berilib, ularning ijodiy fikrlashlari va ifodalanishlari rag'batlantiriladi. Masalan, "Hayotdagi eng yaxshi kuningizni tasvirlang" mavzusida insholar yozish orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini aniq, tasvirlovchi va izchil tarzda ifodalashni o'rganadilar. Yozma ishlar orqali o'quvchilarning so'z boyligi kengayadi, matni tuzish qobiliyati rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni faollikka undovchi, ularning o'zaro muloqotini va fikr almashishini rag'batlantiradigan ta'lim usullari hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarga dars jarayonida mustaqil fikrlash, o'z fikrini ifodalash, boshqalar bilan bahslashish va mulohazalarini bayon qilish imkoniyatini yaratadi. Bu metodlar nafaqat o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, balki ularning ijodiy fikrlashini ham oshiradi. Interfaol metodlar orasida guruhlarda ishlash, rol o'ynash, munozara va diskussiyalar, taqdimotlar qilish, yozma ishlar yaratish kabi usullar o'z o'rnini topgan. Har bir metodning o'ziga xos xususiyatlari bor bo'lib, ular o'quvchilarning nutqini turli yo'nalishlarda rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarning natijalari va samarasi shundaki, interfaol metodlar o'quvchilarning nutqini faqat yozma yoki og'zaki shaklda rivojlantiribgina qolmay, ularning o'zaro hamkorlikda ishlash, fikrlarni baham ko'rish va boshqalarning nuqtai nazarini qabul qilish kabi qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Shuningdek, bunday metodlar o'quvchilarning ishtiyoqini oshiradi, chunki ular darsda faollik ko'rsatishadi va o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. Guruhlarda ishlash, rol o'ynash, munozara, taqdimotlar qilish va yozma ishlar yaratish orqali o'quvchilar o'z nutqini ravon, aniq va ifodali qilishni o'rganadilar. Bu metodlar o'quvchilarning nafaqat nutqini, balki ijodiy fikrlash qobiliyatini ham oshiradi. Shuning uchun, ona tili darslarida interfaol metodlardan keng foydalanish o'quvchilarni o'z nutqlarini rivojlantirishga ko'maklashadi va ularning ta'lim olish jarayonini yanada samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Qodirov, A., Yo‘ldoshev, U. (2019). O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Yo‘ldoshev, U., Qurbonov, S. (2020). O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. Hasanboyeva, O. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. Toshkent: Noshir.
4. G‘ofurov, U. (2018). Interfaol ta’lim metodlari va ularning o‘zbek tili darslarida qo‘llanilishi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Rahimov, S. (2017). Innovatsion ta’lim va interfaol metodlar. Toshkent: Fan.
6. Shuhratovna, N. Y. (2024). KICHIK HAJMDAGI MATNLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 273-276.
7. Махмудова, С. А. (2022). Репрезентация концептуальной оппозиции "свой/чужой" в романе Дж. Олдриджа "Горы и оружие". Вестник Челябинского государственного университета, (9 (467)), 153-160.
8. Makhmudova, S. A. (2023). REPRESENTATION OF THE CHARACTER CONCEPT " ENGLISHMAN" IN THE NOVEL BY J. ALDRIDGE " DIPLOMAT". Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 16, 99-105.
9. Махмудова, С. А. (2022). ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ/ЧУЖОЙ» В ТРИАДУ «ДРУГОЙ-СВОЙ–ДРУГ» В РОМАНЕ ДЖ. ОЛДРИДЖА «I DON’T WANT HIM TO DIE» («НЕ ХОЧУ, ЧТОБЫ ОН УМИРАЛ»). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(5).
10. Makhmudova, S., & Sharifova, Z. (2024, May). THE INTRODUCTION OF AN INTERMEDIATE CHARACTER INTO THE BINARY OPPOSITION " FRIEND OR FOE" AS A NECESSARY ELEMENT OF A LITERARY TEXT. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 708-710).
11. Махмудова, С. А. (2023). Репрезентация персонажного концепта «англичанин» в романе Дж. Олдриджа «Дипломат». Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 420-427.

12. Makhmudova, S. A. (2023). PECULIARITIES OF REPRESENTATION OF BINARY OPPOSITION " FRIEND/FOE" IN DIFFERENT SPACES OF J. ALDRIDGE'S NOVEL " DIPLOMAT". Open Access Repository, 9(7), 138-144.
13. Махмудова, С. А. (2023). ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ БИНАРНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ/ЧУЖОЙ» В РАЗНЫХ ПРОСТРАНСТВАХ РОМАНА Дж. ОЛДРИДЖА «ДИПЛОМАТ». European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 125-132.
14. Махмудова, С. А. (2023, June). РОЛЬ БИНАРНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ-ЧУЖОЙ» В РОМАНЕ ДЖ. ОЛДРИДЖА «ГОРЫ И ОРУЖИЕ». In E Conference Zone (pp. 74-77).
15. Махмудова, С. А. (2023, June). ТРИАДА «ДРУГОЙ-СВОЙ-ДРУГ» В «ВОСТОЧНЫХ» РОМАНАХ ДЖ. ОЛДРИДЖА. In E Conference Zone (pp. 69-73).
16. Makhmudova, S. A. (2022). The Crisis Of Heroes' Self-Identification In "Oriental" Novels By J. Aldridge. Journal of Positive School Psychology, 6(7), 2781-2786.
17. Махмудова, С. А. (2022). БЛИЖНИЙ И СРЕДНИЙ ВОСТОК В РОМАНАХ И ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЖЕЙМСА ОЛДРИДЖА. In Конференция состоялась (Vol. 5, p. 412).
18. Махмудова, С. А. (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(8), 171-175.
19. Makhmudova, S. A. (2023). TRIAD " OTHER-OWN-FRIEND" IN " ORIENTAL" NOVELS OF J. OLDRIDGE. Conferencea, 87-89.
20. Mukhamadiyeva, M., & Sharipov, B. (2022). LATIN AS THE MAIN LANGUAGE OF MEDICINE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 337-339.
21. Salimovich, S. B. (2023). TRANSLATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN AND BASIC MEDICAL TERMINOLOGY CLASSES. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 100-103.
22. Sharipov, B. (2023). SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 477-479.

23. Sharipov, B. (2022). RETSIPROKLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(19), 63-66.
24. Salimovich, S. B. (2022). RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(12), 129-131.
25. Salimovich, S. B. (2022). Studies of Reciprocity in Linguistics. Eurasian Scientific Herald, 8, 221-224.
26. Isroilova, M., & Sharipov, B. (2023). SOME OBSERVATIONS ON LATIN PRONUNCIATION AND SPELLING. Science and innovation in the education system, 2(7), 127-129.
27. Шарипов, Б. С. (2022). TIL BIRLIKLARINING NUTQDA FAOLLASHUVI HAQIDA. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(1).
28. Nasimjanovna, K. F., & Salimovich, S. B. (2023). NAMES OF DISEASES AND THEIR USE IN CLINICAL TERMINOLOGY. Journal of Universal Science Research, 1(6), 469-474.
29. Salimovich, S. B. (2022, January). FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS. In Conference Zone (pp. 62-63).
30. Dilbar, I., & Kamola, S. (2022). Teaching English methods. Thematics Journal of Education, 7(5).
31. Shamsiyev, K., Olimzoda, P., Saidova, K., & Ibragimova, D. (2023, February). Approaches to Teaching Academic Writing. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 2, pp. 31-34).
32. Ahmadjonovna, R. S., Genjibaevna, A. P., Saydullaevna, N. N., Atakulovna, R. N., & Sadulayevna, I. D. (2021). The Teacher's Role in the Effective Organization of the Lesson Process in Foreign Language. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3072-3078.
33. Saidova, K., Ibragimova, D., Olimzoda, P., & Shamsiyev, K. (2023). INFLUENCE OF USING GAMES ON ENGLISH LESSONS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 54-58.
34. Sadullayevna, I. D. (2022). PEDAGOGIK MAHORAT QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 129-133.

35. Saydullaevna, I. D., & Abbas, H. (2023, November). PRESCRIPTION, STRUCTURE OF PRESCRIPTION, USE OF GENDER SINGULAR AND PLURAL IN PRESCRIPTION. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 222-225).
36. Kakhramon, S., Dilbar, I., & Kamola, S. (2023). Terminology as a special branch of language. Journal of new century innovations, 22(4), 46-49.
37. Ibragimova, D., & Mukhammadieva, M. (2024, May). MOTIVATING TECHNIQUES FOR LEARNING FOREIGN LANGUAGES. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 54-56).
38. Sadullaevna, I. D., & Tokhirovna, M. M. (2024). Communicative aspects of medical communication between a doctor and a patient. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(1), 264-269.
39. Sadullaevna, I. D., & Teja, A. S. C. (2024). Grammar categories and vocabulary form of adjectives in latin language. Journal of Universal Science Research, 2(1), 419-424.
40. Sadullayevna, I. D. (2024). COLLABORATION IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(8), 80-83.
41. Ибрагимова, Д. (2024). Green wealth of Uzbekistan and its useful medical properties. Общество и инновации, 5(3/S), 121-124.
42. Ahmadjonovna, R. S., Genjibaevna, A. P., Saydullaevna, N. N., Atakulovna, R. N., & Sadulayevna, I. D. (2021). The Teacher's Role in the Effective Organization of the Lesson Process in Foreign Language. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3072-3078.
43. Sherbekova, Y., Makhmudova, S., Normuradova, N., Nuraliyeva, O., & Beknazarova, M. (2021). English As A Medium of Instruction in School of Arts. Ilkogretim Online, 20(3).
44. Normuradova, N. S. (2022). Literature and modernism of usa in the XX century.
45. Нормуродова, Н. С. (2016). Проблемы классификаций различных средств выражения искажения действительности. In Вестник научных конференций (No. 1-5, pp. 134-135). ООО Консалтинговая компания Юком.